

---

## MAHALLALARDA OLIB BORILAYOTGAN OBODONLASHTIRISH ISHLARI O'RGANILDI

Farg'ona shahrida hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joylardagi mazkur ishlarni jadallashtirish maqsadida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov tomonidan har bir mahallaga mas'ullar birlashtirilgan, shuningdek Ishchi guruhi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Amalga oshirilayotgan ishlardan fuqarolar mamnun bo'lmoqdalar. Albatta, bu borada kelib tushayotgan murojaatlar hamda o'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun mablag' hamda muddat talab etiladi. Asosiysi har bir amalga oshirilishi belgilangan ishlar uchun chora-tadbir tuzilib, qat'iy nazoratga olingan. Bu esa kun sayin shahrimizning obod bo'layotganida aks etmoqda.

Afsuski, ayrim hududlarda olib borilayotgan ishlarni qo'llab-quvvatlamayotgan, islohotlarni amalga oshirishda faol bo'lmayotgan mas'ullar hamda aholi vakillarining hali hanuz borliklari ish samaradorligini susaytirmoqda. Joylardagi o'zgarishlar va mas'ullarning faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida shaxsan shahar hokimining o'zi korxonalar va tashkilotlar, ta'lim va tibbiyot muassasalari hamda mahalla fuqarolar yig'inlariga tashrif buyurmoqda.

Vosiljon Nazarovning "Navoiy", "Do'stlik", "Gulzor", "Sharof Rashidov" va "Mash'al" mahalla fuqarolar yig'inlariga tashrifi davomida ham har bir hudud ko'zdan kechirildi. Mazkur mahallalarda fuqarolar asosan ko'p qavatli uylarda istiqomat qilishadi.

Ayrim hududlardagi chiqindi yig'ish joylarining tartibsiz, o'z holiga tashlab qo'yilgani, yarmida qoldirilgan qurilishlar hamda bo'yalmagan devorlar ham ko'chalar husnini buzmoqda. Albatta shu kunga qadar barcha joylarni obodonlashtirilgan hududlar ham bor. Mas'ullar shu hududda yashayotgan fuqarolar, uy boshilar hamda mas'ullarga minnatdorchilik bildirdilar, namuna sifatida ko'rsatdilar.

Albatta, mas'ullarning o'z ishlariga havas va ishtiyoq bilan yondoshmaganliklari hamda shu hududlarda yashayotgan fuqarolarning e'tiborsizligi, ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan qadriyatimiz - jamoaviy hasharlarining o'tkazilmayotganligi mahallalarning bugungi holatga kelishiga sabab bo'lgan. Hududlardagi xazonlarni olib chiqish, yer maydonlarini chopish bo'yicha boshqaruv servis kompaniyalari, sanitar-servis korxonalarini hamda shahar obodonlashtirish boshqarmasi rahbarlariga alohida topshiriqlar berildi.

Shahar hokimi mahallalarda keng ko'lamli obodonlashtirish ishlarini olib borish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bahor oylarida mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini ekish uchun yer maydonlarini tayyorlash bo'yicha mas'ullarga kerakli tavsiyalar hamda topshiriqlar berdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-23 09:18:08